



O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i va uning tarixi.

Toshkent shahar yuridik texnikumi

"Mutaxassislik fanlari" kafedrası o'qituvchisi.

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna.

Annotasiya. Ushbu maqolada yoshlar ongiga Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtirishi haqida fikr va mulohazalar singdirilgan. Jumladan, millatimiz erki hisoblanmish bayroq tom ma'noda mamlakat ramzi, ulug'vorlik timsoliga aylanganligi e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlaridan biri bo'lmish bayroq haqida ma'lumotlar berib tavsiflanadi shuningdek yurtimiz tarixida mavjud bo'lgan ulkan mamlakatlar bayroqlari haqida ham fikr yuritilib tahlil qilinadi.

Kalit so'z. Ezgulik, hurlik, mustaqillik, qadriyat, millatlararo totuvlik, urf-odat, tinchlik, bayroq, ramz, bayroq tarixi.

Kirish. 1990 yil 30 martda «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi, 1991 yil 15 fevralda «O'zbekiston Davlat bayrog'i va Davlat gerbi emblemalarini ishlab chiqish to'g'risida»gi Parlament qarorlari e'lon qilindi va siyosatshunos va huquqshunoslar, olimlar, mutaxassislardan iborat ekspert guruhi va maxsus komissiya tuzildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov davlat bayrog'idagi uchta asosiy rangni – moviy, oq va yashil yo'l-yo'llarni o'z qo'li bilan chizib, komissiyaga taqdim etdi. Birinchi Prezidentning ushbu tashabbusi O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini qabul qilishda asos vazifasini bajardi.



Bugungi kunga kelib dunyo xaritasida mamlakatlarning soni 210 tadan oshgan bo'lib ularning har biri davlatning xalqaro miqyosda mavjud ekanligini kafolatlabberuvchi omillardan biri bo'lmish o'z ramzlariga ega. Bu ramzlardan biri bayroq sanaladi. O'zbekiston Respublikasi ham boshqa mamlakatlar singari 1991-yil 31-avgust sanasida mustaqillik haqidagi tarixiy hujjat imzolanganidan so'ng o'z davlat ramzlarini ishlab chiqishga kirishdi.

Asosiy qism. Bu davlat ramzlari orasida dastlab Respublika bayrog'i 1991-yilning 18-noyabrida qabul qilindi.

1991-yilning 18-noyabr sanasida shunday qilib davlatchiligimiz tarixiga bayroq qabul qilingan kun sifatida muhrlandi va aynan shu sanada O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida" gi 13 moddadan iborat qonun ham qabul qilindi. Bundan tashqari Respublika Bosh Qomusining 5-moddasida ham bu haqda tgishli norma bilan mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. Davlat ramzlari davlat himoyasidadir".

Bir so'z bilan ta'kidlanganda, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir. Bayroqqa mukammal tarzda tavsif ham 18-noyabrdagi qonunda alohida norma bilan belgilangan bo'lib, qonunning 4-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir deb ta'riflanadi. Ushbu modda quyidagicha davom etadi: 'O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetrغا teng bo'lib uning kengligi 125 santimetrغا teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrغا tengdir.



Barchamizga ma'lumki bayrog'imiz o'zida butun O'zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni mujassam etgan. Milliy bayrog'imizning davlat idora va muassasalari, o'quv yurtlari, O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixona va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turishi, turli bayram va tantanalarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirishi barchamizga iftixor baxsh etadi. Masalan, xalqaro sport bellashuvlarida g'alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilgan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizni sezamiz. Zero, bayroq xalqning o'tmishi va buguni, mustaqilligi, tinchligi va barqarorligining timsolidir.

Keling, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan, uning tarixi haqida suhbatlashamiz...

Agar tarixga nazar tashlasak, bayroq – insoniyat tarixini aks ettiradigan o'ziga xos ramzdir. Chunonchi, dastlabki bayroqlar olis o'tmish qa'rida, eramizdan avvalgi III-II ming yillikda paydo bo'lib, ular qabilalarni bir-biridan farqlab ko'rsatuvchi belgi sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik ular hukmdorlar, lashkarboshilarning hukmronligini bildiradigan ramzga aylangan. Chunonchi, oq bayroq ko'tarilishi, tinchlik va barqarorligini anglatga, qora bayroq esa, bosqinchilik, urushni anlatgan.

Hozirgi paytda esa bayroqlar davlat mustaqilligi ramzi sanalib, unda mamlakatning milliy o'ziga xosligi, tarixi aks etadi. Bizning hududimizda ham bayroqlar juda qadim zamondan paydo bo'lib, biz ularni qadimgi adabiy yodgorliklarda, tasviriy san'at asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo'l qo'yilmasligi



haqidagi hamda davlat bayrog‘i tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlar, xizmatlar) o‘tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emasligi haqidagi talablar ham qat’iy qilib belgilandi. Davlat ramzlarini hurmat qilish barchamizni burchimizdir.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, davlat ramzlaridan biri, o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va iftixori, tarixiy madaniyati va ma’naviyati timsoli bo‘lgan bayrog‘imizni har birimiz e’zozlashimiz, hurmat qilishimiz zarurdir.

Davlat ramzlari milliy qadriyatlarimiz timsoli bo‘lgaligi uchun ham keyingi vaqtlarda qonunchiligimizga ko‘plab yangi qoidalar kiritildi. Jumladan, Davlat ramzlariga hurmatsizlik, shuningdek ulardan foydalanish tartib – qoidalarini nazorat qilish bo‘yicha mas’ul organlar aniq belgilab qo‘yildi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksda ramzlardan foydalanishda e’tiborsizlik va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbar xodimlar uchun alohida javobgarlik belgilanganligini aytib o‘tish joiz.

Fikrimizning dalili sifatida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks «Davlat ramzlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish», deb nomlangan yangi 203-1 modda bilan to‘ldirilganligini keltirib o‘tishimiz mumkin. Unga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish, – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi».

Davlat ramzlari har bir mamlakatning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi muqaddas timsollardir. O‘zbekistonning davlat ramzlari xalqimizning



shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etib, shu yurtda yashovchi har bir fuqaroga g'urur, faxr va iftixor bag'ishlaydi. Yangi O'zbekistonning muqaddas ramzlari – Davlat gerbi, Davlat bayrog'i, Davlat madhiyasi barcha O'zbekiston fuqarolari uchun azizdir. Ular ma'naviyatning eng muhim timsollaridir. Shu bois, bayrog'imiz yoki gerbimizga nazar solganimizda yoki madhiyamiz yangraganda biz ruxan jo'shqinlikni, azmu shijoatimiz oshganini, qalbimizda g'urur va buyuk istiqbolga ishonch tuyg'usini his etamiz.

O'zida juda katta ma'no-mazmunni mujassam etgan, yuksak did va mahorat bilan puxta ishlangan, o'zida butun O'zbekiston ahlining asriy orzu-istaklarini, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni, ajdodlar yodi hamda millat g'ururini mujassam etgan bayrog'imiz sayyoramizdagi barcha mamlakatlarning davlat ramzlari orasida alohida hurmat va ehtiromga sazovordir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: Ozbekiston, . 2017
2. I. A. Karimov "Yuksak-ma'naviyat yengilmas kuch" T. : "Ma'naviyat", 2008. 3.Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). O 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T.: «Yangi asr avlodi», 2002.
3. M.Sharifxo'jayev. O 'zbekiston:yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. -T.: «Sharq» nashriyoti, 2004, 259-bet.
4. Barkamol avlod orzusi. -T.: «Sharq», 1998, 144-bOdilov F. Axloqiy ong va ijtimoiy taraqqiyot. «Guliston», 1997,
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T. : Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
6. Milliy istiqlool g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo'chiqorova, M. Qarshiboyev. T. : "Ma'naviyat 2007